


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnda, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2020- yil yanvar-noyabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(2020- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

6



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 2 874 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 124,5 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 125,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 90,9 %), tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 112,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,3 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 132,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 126,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 304 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,6 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 102,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 60,2 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 115,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,9 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin 113,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 30,8 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 5 502 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131,3 % ga oshdi. Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 135,5 % ga (jami savdodagi ulushi 70,0 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 116,2 % ga (jami savdodagi ulushi 21,6 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 133,7 % ga (jami savdodagi ulushi 8,4 %) o'sishidir.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

8

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

383



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

13



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

8



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



87

yashash bo'yicha xizmatlar



1 180

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 267 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,6 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 112,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,1 %), yashash bo'yicha xizmatlarning- 104,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,9 %) o'sishidir.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

18 602
ro'yxatdan o'tgan

1 056
kichik korxonalar

17 546
mikrofirmalar

17 953

faoliyat
ko'rsatayotgan

1 050
kichik korxonalar

16 903
mikrofirmalar

4 040


2020- yilda yangi
tashkil etilgan

61
kichik
korxonalar

3 979
mikrofirmalar


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 1 662 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 632 taga yoki 161,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 567 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 569 taga yoki 157,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 613 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 253 taga yoki 170,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 13 112 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 732 taga yoki 126,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 12 731 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 590 taga yoki 125,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 902 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 545 taga yoki 123,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 169 tani tashkil etib, ulardan 166 tasi yoki 101,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 18 taga yoki 109,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida 15 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)

	2019- yil	2020- yil
Jami	34	15
shu jumladan:		
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	7	9
Sanoat	14	5
Qurilish	3	1
Savdo	8	-
Tashish va saqlash	1	-
Sog'iqliqi saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	-

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	65	77	116	151	166
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12	15	33	37	45
Sanoat	40	45	56	74	81
Qurilish	3	3	3	6	6
Savdo	6	9	16	21	20
Tashish va saqlash			1	2	2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	2	1	3	3
Axborot va aloqa					
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	2	3	3
Boshqa turlar	1	2	2	5	6

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

13

■ O'sish sur'ati ■ 2020- y. ■ 2019- y.



**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

14


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Qoraqalpog'iston Respublikasi	166	93	73
tumanlar:			
Amudaryo	5	2	3
Beruniy	10	3	7
Bo'zatov	2	1	1
Qorao'zak	10	7	3
Kegeyli	7	5	2
Qo'ng'irot	7	5	2
Qonliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	30	21	9
Nukus	9	6	3
Taxiatosh	11	3	8
Taxtako'pir	6	4	2
To'rtko'l	4	3	1
Xo'jayli	4	1	3
Chimboy	5	3	2
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	5	3	2
Nukus sh.	40	21	19

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 40 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 24,1 %), Mo'ynoq 30 ta (18,1 %), Taxiatosh 11 ta (6,6 %), Qorao'zak va Beruniy 10 tadan (6,0 %), Nukus tumanida 9 tani (5,4 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

15



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,5 %), To'rtko'l (10,3 %), Beruniy (8,4 %), Amudaryo (7,3 %), Ellikqal'a (6,2 %), Qo'ng'irot (5,8 %), Xo'jayli (4,9 %), Nukus (4,6 %), Chimboy (3,8 %), Taxiatosh (3,3 %), Qorao'zak (3,0 %), Kegeyli (2,8 %), Qanliko'l (2,6 %), Mo'ynoq (2,5 %), Shumanay (2,6 %), Taxtako'pir (2,1 %) va Bo'zatov (1,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2020- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (20,8 %), To'rtko'l (9,3%), Beruniy (8,1 %), Ellikqal'a (6,6 %), Amudaryo (6,9 %), Qong'irot (7,3 %), Xo'jayli (5,3 %), Nukus (5,1 %), Taxiatosh (3,7 %), Mo'ynoq (3,9 %), Taxtako'pir (3,5 %), Chimboy (3,5 %), Bo'zatov (3,5 %), Shumanay (3,4 %), Kegeyli (3,2 %), Qonliko'l (3,1 %) va Qorao'zak (2,8 %) tumanlari ulushiga tegishli.



**Tumanlar kesimida har 1000 oilaga to‘g‘ri keladigan
tadbirkorlik subyektlari soni¹⁾**
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)



**Tumanlar kesimida har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan
kichik korxona va mikrofirmalar soni²⁾**

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)




¹⁾ 2020-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha kengashlari ma‘lumotlari asosida jamlangan.

²⁾ Doimiy aholi soni 2020-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra shakllantirilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

17



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,8 %), To'rtko'l (11,1 %), Beruniy (7,5 %), Amudaryo (6,5 %), Nukus (5,5 %), Qo'ng'irot (5,5 %), Xo'jayli (4,9 %), Ellikqal'a (4,1 %), Chimboy (3,7 %), Qorao'zak (3,3 %), Kegeyli (2,9 %), Mo'ynoq (3,0 %), Taxiatosh (2,4 %), Shumanay (1,6 %), Qonliko'l (1,6 %), Bo'zatov (1,4 %) va Taxtako'pir (1,2 %) tumanlari hissasiga tegishli.

**Tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

18



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining tumanlar bo'yicha soni


(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Taxtako'pir (14,5 %), To'rtko'l (11,7 %), Beruniy va Amudaryo (11,6 %) dan, Nukus shahri (10,4 %), Qonliko'l (9,5 %), Ellikqal'a (5,7 %), Taxiatosh (5,1 %), Xo'jayli (3,9 %), Nukus tumani (3,3%), Shumanay (2,9 %), Qorao'zak (2,6 %), Qo'ng'iroq (2,4 %), Mo'ynoq (2,3 %), Kegeyli (1,0 %), Chimboy (0,8 %) va Bo'zatov tumanida (0,7 %) ulushlarini qayd etadi.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagisi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistical Committee of Uzbekistan. The top navigation bar includes links for 'Bayron', 'Gero', 'Madhiya', 'Shaxsiy kabinet', and social media icons for Facebook, Twitter, and YouTube. Below the header, there's a search bar and a 'Qidirish' button. The main content area features the title 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI' and the 'UZSTAT' logo. A sidebar on the left lists various statistical categories like 'Rasmiy statistika', 'E'ton qilish raqimi', 'Metamalumotlar', etc. The central part of the page shows a modal window for entering a registration number ('Kodini kiriting') with fields for 'Rasmida' and 'Kodni kiriting'. To the right, there's a column titled 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' listing useful materials such as 'Aholini royxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', etc.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi**
Tel.: 61 224-92-09